
Sport — sog'lom hayot garovi

Yangi O'zbekistonda el aziz, inson aziz

Mohiyatan, sport salomatlik garovi ekanini barchamiz yaxshi bilamiz. Shu bois, O'zbekistonda sport bilan shug'ullanish ommaviy tus olmoqda. Sog'lom turmush tarziga amal qilayotgan yurtdoshlarimiz soni kun sayin ko'payib borayotgani ham fikrimiz dalili.

Prezidentimizning 2020 yil 30 oktyabrdagi "Sog'lom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni esa bu boradagi harakatlarimizga yangi ruh bag'ishladi. Tumanimizda erta tongdan xiyobonu ko'chalarda yugurib, chiniqayotgan odamlarni ko'p uchratyapmiz. Bugun maktabgacha ta'lim tizimi xodimlari o'rtasida ham sport bilan muntazam shug'ullanish avj olgan. Turli sport musobaqalari o'tkazish ommalashmoqda.

Ta'kidlash joizki, davlatimiz rahbari tomonidan ilgari surilgan beshta muhim tashabbusning ikkinchi yo'nalishi - yoshlarni jismoniy chiniqtirish, ularning sport sohasida qobiliyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratishga alohida e'tibor qaratilayotgani keyingi yillarda ommaviy sport tadbirlarini o'tkazishga keng yo'l ochmoqda.

Xususan, Rishton tumanidagi 12-DMTTda "Yangi O'zbekistonda el aziz, inson aziz" shiori ostida sport festivali o'tkazilib, unda guruh tarbiyalanuvchilari va tarbiyachilari ishtirok etishdi.

2022-08-11 16:05:39